

**O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Sirdaryo viloyati hududiy qo'riqlash boshqarmasi tomonidan
G'allaorol magistral gaz quvurlari boshqarmasini qo'riqlash xizmatini ko'rsatish bo'yicha**

SHARTNOMA

«19 » 816apre. 20 22 yil

№ 7-son

Guliston shahri

Sirdaryo viloyat Qo'riqlash boshqarmasi nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi boshqarma boshlig'i polkovnik A.B.Xo'jamurov (keyingi o'rinnlarda Ijrochi deb yuritiladi) bir tomonidan, "O'ztransgaz" AJ tomonidan 2022 yil 5 yanvarda berigan 01-32/17D-sonli ishonchnomaga asosan ish olib boruvchi G'allaorol MGQB boshlig'i v.b B.S.Xidirov (keyingi o'rinnlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi) ikkinchi tomonidan, birgalikda «Tomonlar») deb yuritiladi, mazkur shartnomani shu xaqida tuzdilar:

I bob. Shartnoma predmeti

1. Ijrochi Milliy gvardiya qo'riqlash xizmati, soqchilik qo'riqlashi ko'rinishida muhandislik texnik qo'riqlash (vositalari) punktidan (keyingi o'rinnlarda TQP deb yuritiladi) foydalangan holda shubhali shaxslarni ob'ekt hududiga kiritmaslik maqsadida, Buyurtmachining hududi (perimetri)ni va mulkini qo'riqlash uchun xizmat ko'rsatish majburiyatini, Buyurtmachi esa mazkur Shartnoma shartlariga asosan o'z vaqtida ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni belgilangan muddatlarda amalga oshirish majburiyatini oladi.

2 bob. Umumiy shartlar.

2. Buyurtmachi Sirdaryo viloyati Yangiyer shahrida joylashgan Yangiyer 3B-KS G'allaorol magistral gaz quvurlari boshqarmasi (keyingi o'rinnlarda ob'ekt deb yuritiladi)ni har kuni kechayu-kunduz **5 ta 24 soatlik**, dam olish kunlarisiz Milliy gvardiya qo'riqlash xizmati qo'riqlash naryadlari posti bilan ijrochiga topshiradi, Ijrochi qabul qiladi.

3. Ob'ektning qo'riqlash chegaralari (imoratlari, qurilmalari), postlarning (yo'nalishlari) joylashuvi chizma-rejada ko'rsatiladi va mazkur Shartnomaga ilova qilinadi hamda uning ajralmas qismi hisoblanadi.

4. Ob'ektdagi kirish-chiqish, ichki ob'ekt rejimi Buyurtmachi tomonidan tasdiqlanadigan kirish-chiqish va ichki ob'ekt rejimini tashkil etish yo'riqnomasiga muvofiq amalga oshiriladi hamda mazkur shartnomaga ilova qilinib uning ajralmas qismi hisoblanadi.

5. Ob'ektni muhandislik texnik qo'riqlash vositalar bilan jihozlash va ta'mirlash Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi, muhandislik texnik qo'riqlash vositalari ijrochining aybi bilan ishdan chiqqan hollarda o'rnatalgan tartibda qo'riqlash xizmati tomonidan ta'mirlanadi hamda tiklanadi. Ob'ektni yong'indan qo'riqlash va xavf-xatar signalizatsiyasi bilan jihozlash chizmasi mazkur Shartnomaga ilova qilinadi hamda uning ajralmas qismi hisoblanadi.

6. Mazkur Shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab, ob'ektda Milliy gvardiya qo'riqlash xizmati yo'lga qo'yiladi.

3-bob. To'lovlarni amalga oshirish.

7. Mazkur Shartnoma asosida ko'rsatiladigan xizmatlar narxi belgilangan tariflarga asosan quyidagicha hisoblanadi:

a) Post-soat hisobida qo'riqlash xizmati 1 oyda 322 911 850 (uch yuz yigirma ikki million to'qqiz yuz o'n bir ming sakkiz yuz ellik) so'm, 12 oyga 3 874 942 200 (uch milliard sakkiz yuz yetmish to'rt million to'qqiz yuz qirq ikki ming ikki yuz) so'm bo'ladi.

8. Ijrochi xizmatlari uchun to'lovarga o'zgartirishlar kiritish qonun hujjalariга muvofiq ushbu xizmatlar turiga yangi tariflar tasdiqlangan hollarda qayta ko'rib chiqildi.

9. Ijrochi tomonidan **Buyurtmacha** bajarilgan ishlari to'g'risida dalolatnomasi hamda xisob-varaqasini oyning 10-sanasigacha taqdim qiladi. **Buyurtmachi Ijrochiga**

10. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt hisoblangan **Buyurtmachi** mazkur Shartnomada ko'rsatilgan oylik to'lovnini (avans to'lovnini) o'z vaqtida to'lamasa, **Ijrochi Buyurtmacha** talabnomasi va ogohlantiruv xatini taqdim qilishga xaqli.

Mazkur shartnoma bekor qilingan hollarda **Ijrochi Buyurtmachi** bilan to'langan to'lovlari bo'yicha solishtiruvni amalga oshirishi zarur.

4 bob. Tomonlarning huquq va majburiyatları.

11. **Buyurtmachi** quyidagi huquqlarga ega:

Ijrochidan belgilangan qo'riqlash tartibiga rioya etishni talab qilish;

xizmat ko'rsatish jarayonida **Ijrochining** xodimlari tomonidan intizomni buzish holatlari aniqlanganda, ularga nis chora ko'rish to'g'ridan-to'g'ri yuqori boshqarmaga xabar berish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yiz zaruriy choralarini ko'rishni **Ijrochidan** talab qilish;

Ijrochi tomonidan xizmatni tashkil qilishi va amalga oshirishini, qo'riqlash turlariga mos bo'lgan kiyim bosh, kiyim bosh anjomlari (ekipirovkasi), qurol-aslahalarining mavjudligini nazorat qilish va doimo ushbu talablarga rivoja etishlarini talab qilish;

Ijrochi tomonidan mazkur Shartnoma shartlari buzilishining har bir holati bo'yicha **Ijrochining** vakili ishtirokida ikki nusxdadan dalolatnoma tuzadi va yuqori idoraga taqdim etish;

Ijrochining aybi bilan yo'l qo'yilgan kamchiliklar aniqlangan taqdirda, ijrochidan ularni bartaraf etish, yetkazilgan zararni undirishni talab qilish;

12. Buyurtmachining majburiyatları:

Mazkur Shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan 20_____ yil «_____» _____ dagi ko'zdan kechirish dalolatnomasiga asosan qo'riqlashga topshiriladigan ob'ektini, alohida xonalarni texnik mustaxkamlash bo'yiche tadbirlarni bajarish, o'z hisobidan texnik qo'riqlash vositalari (ob'ekning turiga qarab post qurilmalari va uni isitish uskunlari, postlararo aloqa, ichki va shahar telefonlari, yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasi, ob'ekt perimetri bo'ylab kerakli yoritish vositalari, qulflar, turniket, kuzatish maydonchasi, shaxsiy tekshirish xonalari, ishchi va xizmatchilarning shaxsiy buyumlarini saqlash xonalari, yong'in o'chiruvchi vositalar va boshqalar) bilan jixozlash va zarur xollarda ularni qo'riqlash xizmati xodimlari bilan birgalikda ta'mirlash;

Ijrochi bilan birgalikda har chorakda kamida bir marta, tunda bir marta va kunduzi bir marta qo'riqlash xizmati xodimlarni postlarda va qorovulkxona ichida olib borayotgan xizmat hamda dam olish faoliyatini, ob'ektning texnik mustahkamligini, qorovulkxonada va perimetrda muhandislik qo'riqlash texnik vositalaring butunligi ko'rikdan o'tkazish, vositalarni sozlik va ishlash holatini tekshirib ko'rish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan qarorlar qabul qiladi hamda nazorat qiladi.

Ijrochidan perimetr taqiqlangan hududida mavjud soz muhandislik qo'riqlash texnik vositalari holati, asbob-anjomlar, mebellar va boshqa buyumlarning nosoz holga kelganligi butligi va vositalarning yo'qolishi aniqlangan taqdirda nima uchun o'z vaqtida yoki smena almashish vaqtida xabar bermaganlik sababini talab qilish hamda vujudga kelgan zararni aybdordan undirish chorasini ko'rish, hujjatlar rasmiylashtirish (dalolatnoma tuzish).

Ijrochidan qo'riqlash xizmati xodimlarining xizmatga kelib ketishi aniq vaqtlanini nazoratga olish.

Ijrochidan qo'riqlash xizmati xodimlarining umumiyo yotoqxonasi va har bir xizmat xonasini ozoda tutishini, elektr energiya, ichimlik suvi, tabiiy gazdan oqilona va tejamkor foydalanishni talab qilish.

Pult-operatori xonasida MMTV (ITSO)lariga texnik xizmat ko'rsatish hisobini olib borish jurnalini, uni saqlanishini, monitorini sozligi va ishlash holatini tekshirish, olib borilgan texnik xizmatlar nomini jurnaldagi ichki yozuvlar bilan tanishish.

binoda rejalashtirilayotgan mukammal ta'mirlash ishlari, ob'ektlarni qayta jihozlash, ish rejimini va ishlarni profilini o'zgartirish, moddiy qimmatliklarni saqlash joyini o'zgartirish yoki yangilarini ochish, ob'ekt yoki uning bir qismini boshqa shaxslarga ijaraga berish yoki mulk xuquqini o'tkazish, qo'riqlash turini, postlar dislokatsiyasini o'zgartirish yoki qo'shimcha qo'riqlash signalizatsiyasi vositalarini o'rnatish bo'yicha tadbirlarning o'tkazilishi xaqida **Ijrochini** bunday ishlarning boshlanishidan kamida 20 kun oldin ogohlantirish;

ob'ektni jixozlangan har bir alohida xonani kundalik qo'riqlashga topshirish, eshiklar qulfi, derazalar, darchalar, lyuklar, ventiliyatsiya teshiklari yopilganligi hamda avtanom qo'riqlash signalizatsiyasini, hududning yoritish xolatini tekshirish, qo'riqlanadigan binolarda elektr jixozlarining, boshqa yong'in manbalarining yoqilgan holda qolib ketishining oldini olish va begona shaxslarning ob'ektda qolishiga yo'l qo'ymaslik;

begona shaxslarga qo'riqlash va signalizatsiya tamoyillari va tizimini, shuningdek berilgan pult raqamlarini oshkor qilmaslik;

Ijrochidan ob'ektdagi ichki tartib va texnika xavfsizligi qoidalariga rivoja qilish va xizmatchilarning o'z vazifalarini bajarishga oid qismi bilan tanishtirish hamda ulardan ijrosini nazorat qilish;

13. Ijrochining huquqlari:

Buyurtmachidan ob'ektda o'rnatilgan kirish-chiqish va ichki tartibga rivoja qilinishini talab qilish;

Mazkur shartnomani tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish munosabati bilan zarur bo'lgan ma'lumotnomalar va boshqa hujjatlarni so'rash va olish;

Ob'ektda o'tkaziladigan barcha madaniy tadbirlar, har xil mavzudagi konkurslar, sport musobaqalarida qo'rilash xizmati xodimlarini jalb qilish va ishtirokin ta'minlash bo'yicha **Buyurtmachidan** talab qilish va hamkorlikda rejalar ishlab chiqish;

14. Ijrochining majburiyatları:

Ijrochi xodimlari xizmat olib borish uchun ularga ajratilgan binoni, perimetrning taqiqlangan hududini, qorovulkxona hududini va kuzatuv minoralari atrofini begona o'tlar, har xil chiqindilardan tozaligini doimo saqlab turish;

Tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etish;

Har yili kamida 2 (ikki) marotaba kuz-bahorda ta'qilangan xududning nazorat iz yo'lagini doimiy ravishda shudgorlash, yumshatish va tekislash ishlarni amalga oshirish (ob'ekt rahbari bilan kelishgan holda)

Xar oyning 10-sanasiga qadar hisob-varaqasi va xizmatlar dalolatnomasini taqdim qilish;

Ob'ekt rahbariga har 6-12 oyda solishtirma dalolatnomasini taqdim qilish;

Ob'ektda postlar dislokatsiyasiga (patrul marshrutiga) muvofiq qo'riqlash naryadini joriy qilish;

Mazkur shartnomada va uning ilovalariga muvofiq ob'ektni hamda qo'riqlashga topshirilgan moddiy qimmatliklarni qo'riqlashni tashkil etish va ta'minlash;

ob'ektda kirish-chiqish va ob'ekt ichki tartibiga rivoja etish, ob'ekt xududiga belgilangan tartibda moddiy qimmatliklar olib kirilishi va chiqilishini nazorat qilish;

propusk rejimi mavjud bo'lgan ob'ektlarda kun davomida nazoratdan o'tkazish punktidan bir martalik kirish ruxsatnomasi bilan ob'ektga kiritilgan tashrif buyuruvchilarning chiqib ketishini ta'minlash;

ob'ektni qo'riqlash vaqtida joydagisi yong'in xavfsizligi qoidalarining bajarilishini ta'minlash;

ob'ektga begona shaxslarning kirib ketganligi aniqlanganda zudlik bilan **Buyurtmachining** vakilini chaqirish va ob'ektning dahlsizligini ta'minlash;

ob'ektda yong'in chiqishi yoki yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasining ishlab ketishi xolatida zudlik bilan yong'in bo'limiga yoki **Buyurtmachiga** xabar berish;

signalizatsiyaning ishlab ketish sabablarini aniqlash va ob'ektni qayta topshirish uchun **Buyurtmachi** vakilini chaqirtirish, tekshirish natijalari va ob'ektni qayta topshirish bo'yicha ikki nushada dalolatnoma tuzish; ijrochining xodimlari tomonidan xizmatni tashkil qilish va amalga oshirish, qo'riqlash turlariga mos bo'lgan **kiyim** bosh, kiyim bosh anjomlari (ekipirovkasi), qurol aslahalarining mavjudligini ta'minlash;

qo'riqlanadigan hududda muhandislik qo'riqlash vositalarining butligi buzilganligi haqida yoki ob'ektga begona shaxslarning kirishi natijasida zarar yetkazilganligi alomatlari mavjud bo'lganda zudlik bilan **Ijrochini** xabardor qilish va ob'ektga **Ijrochi** vakili yetib kelgunga qadar ko'rsatilgan joylarning dahlsizligini ta'minlash;

ob'ektni qo'riqlashga qabul qilganda va topshirganda ob'ektdagi texnik mustaxkamligini bo'yicha va qo'riqlashning texnik vositalari bilan bog'liq aniqlangan barcha kamchiliklar haqida Buyurtmachini xabardor qilish;

Buyurtmachi bilan birgalikda har chorakda kamida bir marja ob'ektning texnik mustahkamlanganligini, qo'riqlashning texnik vositalari bilan ta'minlanishini, jumladan yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasini tekshirish ko'rigini o'tkazish. Buyurtmachi tomonidan aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatlari hamda **Ijrochini** bu haqda xabardor qilish muddati va tartibini ko'rsatgan xolda tomonlarning vakillari ishtirokida ikki nushadan dalolatnoma tuzish.

qo'riqlanayotgan xonalar buzilganligi yoki mulkka yetkazilgan zarar to'g'risida Milliy gvardiya qo'riqlash xizmati naybatchilik qismiga va **Buyurtmachiga** zudlik bilan xabar berish. Milliy gvardiya qo'riqlash xizmati vakili yetib kelgunga qadar xodisa yuz bergan joyning dahlsizligini ta'minlash.

5 bob. Tomonlar javobgarligi.

15. Mazkur Shartnomaning 9-bandida ko'rsatilgan summaning **Buyurtmachi** tomonidan o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun **Buyurtmachi** **Ijrochiga** o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0.4 foiz miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

16. **Ijrochining** xodimi postda va patrul yo'nalishlarida bo'lmaganida **Ijrochi** **Buyurtmachiga** har bir bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0.5 foizi miqdorida penya to'laydi. biroq bunda ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

17. Penya to'lash buyurtmachi va ijrochini o'z majburiyatlarini buzishi oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

18. **Ijrochi** mazkur Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni lozim darajada bajarmaganligi natijasida **Buyurtmachiga** yetkazilgan zarar uchun moddiy javobgar bo'ladi.

19. **Ijrochining** aybi bilan yetkazilgan zararning miqdorini aniqlash uchun tomonlar vakillaridan iborat ishechi gurux tuzilishi mumkin. Bunda zarar miqdori tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirib, ishechi gurux a'zolari tomonidan tasdiqlanadi. Nizo mavjud bo'lgan taqdirda zarar miqdori sudning qarori bilan aniqlanadi.

20. Quyidagi hollarda **Ijrochi** zararni qoplasmaydi:

Ijrochi shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni to'liq bajargan bo'lishiga qaramasdan, zarar uchinchi shaxslarning jinoiy harakatlari natijasida yetkazilgan bo'lsa va bu sudning qonuniy kuchga kirgan qarori, bilan tasdiqlansa.

Qabul qilish-topshirish jurnalida qayd qilinmagan mulkka zarar yetkazilganda.

6 bob. Nizolarni hal qilish tartibi.

21. Mazkur Shartnomani tuzish, bajarish, o'zgartirilishi va bekor qilish vaqtida taraflar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar, shuningdek yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi nizolar o'rnatalgan tartibda ko'rib chiqiladi.

7 bob. Fors-major.

22. Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun agar ushbu bajarmaslik shartnoma tuzilgandan keyin paydo bo'lgan engib bo'lmaydigan kuch, ya'ni favqulodda va muayan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (fors-major) oqibati hisoblansa javobgarlikdan ozod qilinadi.

23. Yengib bo'lmaydigan kuch xolatiga havola qiluvchi tomon boshqa tomonni bunday holatlar boshlanganligi va tamom bo'lganligi to'g'risida ikki kun ichida yozma shaklda xabardor qilishi shart. Ushbu muddat ichida xabar bermagan tomon mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilish asosi sifatida ko'rsatishga xaqli emas.

Fors-major holatlariga suv toshqinlari, yer qimirlashi va boshqa tabiiy xalokatlar, shuningdek, epidemiyalari, yong'inlar, portlashlar, davlat xokimiyati va boshqaruvi organlarining mazkur Shartnoma ijrosiga bevosita ta'sir ko'rsatgan qarorlari kiradi.

24. Mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmas kuch holatlari amal qilgan davrga mutanosib ravishda kechiktiriladi. Agarda fors-major bir oy davom etsa tomonlar mazkur Shartnomani bir tomonlama bekor qilishga xaqli.

25. Tomonlarning kelishuvi bilan hal qilib bo'lmaydigan nizolar qonun xujjalalarida belgilangan tartibda hal qilinadi.

8 bob. Yakuniy qoidalar.

26. Mazkur Shartnoma ob'ektning G'aznachilik bo'limida ro'yxatdan o'tkazilganda kuchga kiradi.

27. Mazkur Shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda tuzilganda hamda **Buyurtmachi** va **Ijrochining** vakillari tomonidan imzolangan taqdirda xaqiqiydir.

28. Shartnomaning amal qilish muddati quyidagicha belgilanadi:

xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bo'yicha-Tomonlar tarafidan imzolangan kundan boshlab! (bir) yil muddatga amal qiladi.

Shartnomani bekor qilish faqatgina O'zbekiston Respublikasi Xukumati qarori bilan amalga oshiriladi.

29. Agar muhandislik texnik qo'riqlash vositalari mukammal yoki joriy ta'mirlashni talab qilsa, zudlik bilan Buyurtmachi tomonidan tiklanadi.

30. **Ijrochi** ketma-ket uch marta post va patrul yo'nalişlarida qo'riqlash tartibini buzsa, **Buyurtmachi** xizmat tekshiruvi o'tkazadi va yuqori idoraga soqchilarga chora ko'rish maqsadida, xujjalarni yuboradi.

31. Tomonlar mazkur Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish to'g'risida 30 kun oldin yozmaravishda ma'lum

32. Ob'ektning hususiyatidan kelib chiqib Tomonlar mazkur Shartnomaga qonun hujjatlariga muvofiq huquq va majburiyatlarini nazarda tutuvchi qo'shimcha bandlar kiritishlari mumkin.

9. Tomonlarning yuridik manzillari va rekvizitlari.

Ijrochi:

Сирларё viloyat Qo'riqlash boshqarmasi

Yuridik manzili: Гулистан шаҳри Бирлашган кўчаси 47-й.

Bank ma'lumotlari: Марказий банк Гулистан шаҳар XKM

X/R 21596000900193586001

MFO: 00023

STIR: 200 626 188


OKO NOK: 89200



А.Б.Хўжамуротов

«___» 20 ___ yil

Huquqshunos:



22.07.07 da
14 йилини билан
QOND ETIDI

[Signature]

Buyurtmachi:

G'allaorol magistral gaz quvurlari boshqarmasi

Yuridikmanzili:

Bank ma'lumotlari:

H/R

MFO:

STIR:

KTUT «O'ZTRANSGAZ» AJ G'ALLAOROL

G'aznachilik bo'linmasining nomi

X/R-20210000700117836127

Yaq. f. «O'ZANDATOURBANK» ATB JIZZAX MINTAQAVIY FILIALI MFO-01152

Bank nomi: OKED 49500 STIR-200 626 188

JIZZAX VILYOYATI G'ALLAOROL TUMANI

G'AZCHILAR QO'RGINI TELEFON: (372) 221-50-16

MFO

G'aznachilik bo'linmasining

STIRi


Boshqarma boshlig'i v.b:



«___» 20 ___ yil

Huquqshunos:

B.S.Xidirov



ҲУҚУҚШУНОС ХУЛОСАСИ:
Шартнома Лойиҳаси Ўзб.Р.нинг
Фуқаролик кодекси.
«Ҳўжалик юритувчи субъектлар фаолиятининг
шартномавий-ҳуқуқий базаси тўғрисида»ги
Конунни ва башка конунларига мувофиқ тузилган.
Ҳуқуқшунос

Ражабов Б.А.